ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

TALABALARNING SUN'IY INTELLEKTLI O'QUV VOSITALARNI LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Kunisova Gulmira Urazxonovna
Buxoro xalqaro universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
kunisovagulmira@gmail.com
ORCID: 0009-0009-8931-9977
https://doi.org/10.5281/zenodo.23527786

Annotatsiya.: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning sun'iy intellektli o'quv vositalarni loyihalash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik muammolari sifatida tahlil etilgan. Mavjud muammolari, yechimlarini aniqlashtirilgan va ularning bartaraf etishga oid fikr va tafsiyalar berib o'tilgan .Zamonaviy raqamli ta'lim sharoitida sun'iy intellekt o'quv vositalarni loyihalashga doir taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.
Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt ,Intellektli o'quv tizimlari,Talabalar kompetentligi,Zamonaviy o'qitish metodlari,Interaktiv ta'lim

Annotation: This article analyzes the pedagogical problems of developing students' competence in designing artificial intelligence-based educational tools in higher education institutions. Existing challenges and their possible solutions are identified, and opinions and recommendations for overcoming these problems are presented. In the context of modern digital education, proposals and recommendations related to the design and implementation of artificial intelligence-based educational tools are also provided.
Keywords: Artificial Intelligence, Intelligent Learning Systems, Student Competence, Modern Teaching Methods, Interactive Learning.

Аннотация:В данной статье рассматриваются педагогические проблемы развития компетентности студентов в области проектирования учебных средств на основе искусственного интеллекта в высших образовательных учреждениях. Определены существующие проблемы и пути их решения, представлены мнения и рекомендации по их устранению. В условиях современного цифрового образования также предложены рекомендации и практические предложения по проектированию и внедрению учебных средств на основе искусственного интеллекта.
Ключевые слова: Искусственный интеллект, интеллектуальные обучающие системы, компетентность студентов, современные методы обучения, интерактивное образование.

Kirish

Talabalarning sun'iy intellektli o'quv vositalarini loyihalashda sun'iy intellektli o'quv vositalarning ahamiyati katta. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining aksariyati, ayniqsa

yoshlarimiz, ijtimoiy tarmoqlarda asosiy vaqtini samarasiz foydalanish orqali o‘tkazib kelmoqda. Buning natijasida talabalarning fanlarga bo‘lgan qiziqishi susayishiga, talabalar tomonidan berilgan topshiriqlarni yuzaki bajarishga, global tarmoqdan tayyor loyihalarni olishga hamda tarbiyaga ta’sir qiluvchi immunitetning shakllanishiga olib kelmoqda. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida talabalarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, talabalarning sun’iy intellektli o‘quv vositalarini loyihalash kompetentligini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir davrda sun’iy intellekt (SI) tizimlari ta’lim sohasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda [1, 2]. Ammo axborot texnologiyalari sohasida talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda o‘quv vositalarini loyihalash muhim o‘rin tutsa-da, uning imkoniyatlariga ayrim hollarda yetarlicha e’tibor qaratilmay qolmoqda. Shuning uchun talabalar sun’iy intellekt sohasida yetarlicha bilimga ega bo‘lishi, kelgusida to‘laqonli kasbiy faoliyatni amalga oshirishi uchun sun’iy intellektli o‘quv vositalarini loyihalash imkoniyatlaridan foydalanishi, mazkur o‘quv vositalarini loyihalash kompetentligini rivojlantirishi, mustaqil ravishda kreativ g‘oyalar asosida turli loyihalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini shakllantirishi muhim hisoblanadi. Shu bois, ayni paytda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak axborot texnologiyalari mutaxassislarini, jumladan sun’iy intellektli o‘quv vositalarini loyihalash bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashning shakl, usul va vositalarini takomillashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Bu borada, ya’ni ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari mamlakatimiz, MDH davlatlari va xorijda Adriano Del Pino Lino [1], T.Sh. Shixanbayeva [2], A.V. Xaperskay [3] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, [4], E.Z. Abdullayevning [5], [6], S.Sh. Sadikovning [7] ishlarida oliy ta’lim muassasalari uchun sun’iy intellektga asoslangan raqamli platforma va dasturiy tizim, ma’lumotlar kabi (Data Hub), sun’iy intellekt faoliyatini tashkil etuvchi mexanizm (SI Engine), kommunikatsiyalar xabi (Communication Hub), analitik markaz (Analytics Center) hamda dasturiy tizimlar integratsiyasini ta’minlovchi ekotizim asosida takomillashtirilgan masalalar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Lekin talabalarning sun’iy intellektli o‘quv vositalarini loyihalash kompetentligini rivojlantirish masalasi pedagogik nuqtai nazardan batafsil tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Kuzatishlarimiz va ilmiy izlanishlarimiz loyihalash kompetentligini rivojlantirishda quyidagi turkum muammolar mavjudligi ma’lum bo’ldi:

Muammolar ro’yxati

✓ Talabalarda loyihalash faoliyatiga nisbatan qiziqishlari yetarli emasligi, o‘z ustida ishlash va rivojlantirish o‘rniga tayyor ishlardan foydalanishga moyillikning mavjudligi pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

✓ 2.“O‘quv-metodik ta’minotning yetarli darajada shakllanmaganligi

✓ Talabalarning xorijiy tillarni bilish darajasining pastligi

✓ Texnik vositalar ytarli emasligi

O‘quv vositalarini loyihalash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning loyihalashga bo‘lgan yondashuvi va faolligining sustlashishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda talabalarning loyihalash faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi yetarli darajada emasligi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim talabalar yangi g‘oyalar yaratish va loyihalar ishlab chiqishga

kam e’tibor qaratmoqda. Bunday holat talabalarning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun talabalarda loyihalash faoliyatiga qiziqishni oshirish, ularni mustaqil izlanishga yo‘naltirish va zamonaviy ta’lim vositalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda talabalarning loyihalashga bo‘lgan qiziqish darajasi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning pedagogik yo‘llari o‘rganiladi. Shuningdek, yana bir pedagogik muammo sifatida ta’lim jarayonida o‘quv-metodik ta’minotning yetarli darajada shakllanmaganligi talabalarning bilim olishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, loyihalash faoliyatini tashkil etishga oid metodik qo‘llanmalar, amaliy topshiriqlar, elektron resurslar va zamonaviy o‘quv materiallarining yetishmasligi talabalarning mustaqil ishlashi hamda ijodiy yondashuvlarini cheklaydi. Natijada talabalar loyihalarni ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch keladi, tayyor materiallardan foydalanishga moyillik kuchayadi va ularning loyihalash kompetentligi yetarli darajada rivojlanmaydi. Shu bois, o‘quv-metodik ta’minotni takomillashtirish, zamonaviy ta’lim vositalari bilan boyitish hamda talabalarning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi metodik materiallarni ishlab chiqish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi. Pedagogik muammo sifatida talabalarning xorijiy tillarni bilish darajasining pastligi ham sun’iy intellektli o‘quv vositalarini loyihalash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Chunki sun’iy intellektga oid ko‘plab ma’lumotlar, dasturlar va metodik manbalar asosan ingliz tilida berilgan. Xorijiy tilni yetarli darajada bilmaslik talabalarning ushbu manbalardan to‘liq foydalanishiga to‘sqinlik qiladi. Natijada talabalar yangi bilimlarni o‘zlashtirishda, zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishda va sifatli loyihalar yaratishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa sun’iy intellektli o‘quv vositalarini loyihalashga bo‘lgan ko‘nikma va kompetensiyalarning rivojlanishiga salbiy ta’sir etadi. Shuning uchun talabalarni xorijiy tillarni o‘rganishga va axborot manbalari bilan ishlashga tayyorlash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Talabalarning xorijiy tillarni bilish darajasining pastligi sun’iy intellektli o‘quv vositalarini loyihalash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning loyihalashga bo‘lgan yondashuvi va faolligining sustlashishiga sabab bo‘lmoqda.

Tahlil va natijalar. Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim. Talabalarning loyihalash faoliyatiga qiziqishini oshirish, ularni mustaqil izlanish va yangi g‘oyalar yaratishga rag‘batlantirish zarur. Buning uchun amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari hamda turli tanlovlarni ko‘proq tashkil etish maqsadga muvofiq. Shuningdek, sun’iy intellektli o‘quv vositalarini yaratishga oid o‘quv-uslubiy materiallarni ko‘paytirish va ulardan samarali foydalanish kerak. Bundan tashqari, talabalarning ingliz tilini bilish darajasini oshirish, xorijiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish talabalarning loyihalash faoliyatidagi faolligini oshirish va kasbiy bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Vazifalar

Talabalarning sun’iy intellektli o‘quv vositalari haqidagi bilim darajasini o‘rganish.

Sun’iy intellektli o‘quv vositalarini loyihalashda uchraydigan muammolarni aniqlash. Talabalarning mustaqil ishlash va yangi g‘oyalar yaratish ko‘nikmalarini tahlil qilish. Loyihalash faoliyatiga qiziqishni oshirish yo‘llarini belgilash.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan izlanishlar tahliliga ko‘ra, shunisi e’tiborga loyiqki, sun’iy inteliektki o’quv vositalarni loyihalash kompetentligini rivojlantirishda bir qator pedagogik muammolar mavjudligini ko’rsatadi. Jumladan, talabalarning loyihalash faoliyatiga qiziqishining ytarli emasligi,o’quv-metodik ta’minotining kamligi va ingiliz tilin bilish darajasining pastligi ushbu jarayon samaradorligiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun talabalarning mustaqil faoliyatini qo’llab –quvvatlas,zamanoaviy metodik materallarini yaratish va xorijiy tilni o’rganishga e’tiborini kuchaytirish zarur.Bu esa talabalarning kasbiy komopetentligini kuchaytirishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4996-son Qarori.
2. Adriano Del Pino Lino. Labder – laboratório virtual de ensino-aprendizagem de banco de dados relacionais: uma abordagem de avaliação automática de diagramas ER e SQL. – 2021. – 350 p.[1]
3. Abdullayev, E.Z. Bo‘lajak o‘qituvchilarni sun’iy intellekt vositasida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2025. – 96 b.[4]
4. Sadikov, Sh.Sh. Oliy ta’lim muassasalarini raqamli promo qilishda sun’iy intellektdan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2026. – 73 b[7]
5. Abdujalilov J.A. Sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini maktab o‘quvchilariga o‘qitish metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2025. – 102 b.
6. Шихнабиева Т.Ш. Методические основы представления и контроля знаний в области информатики с использованием адаптивных семантических моделей: диссертация на соискание ученой степени. – Москва, 2009. – 58 с.[2]
7. Хаперская А.В. Непрерывное образование людей с ОВЗ в условиях электронного обучения: диссертация на соискание ученой степени. – Томск, 2020. – 154 с.[3]